

**IS'HOQXON TO'RA IBRAT – MILLIY UYG‘ONISH  
DAVRINING YETUK VAKILI**

*Abdullaxo‘jayev Adxamxo‘ja Isaxo‘ja o‘g‘li  
Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi  
tel: +998 90 362 91 41*

*“Senga bu olam g‘animatdur, Barcha ashyosi ne‘matdur”  
**Is’hoqxon To‘ra Ibrat***

Milliy uyg‘onish davrining yorqin namoyondalaridan biri, ma'rifatparvar shoir, olim, sayyoh, matbaachi va muallim Is’hoqxon To‘ra Ibrat hozirgi Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida ziyoli oilada tavallud topgan. Otasi Junaydullaxo‘ja va onasi Huribibi xat-savodli kishilardan bo‘lib, maktabdorlik ham qilgan. Ishoqxon ona-otasi qo‘lida ta‘lim olib, keyinchalik turli maktab va madrasalarda ta‘lim olgan. Uning, Qo‘qon adabiy muhiti namoyondalari, jumladan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Haziniy va Nodim kabi shoirlar ijodi bilan oshno bo‘lishi tabiiyki, onasi Huribibi nomi bilan bog‘liq. Is’hoqxon Ibratni Qo‘qon madrasasiga o‘qishga borib ilm-ma’rifat egalari bilan Ana shu tahsil (1878-1886) yillarida buning ustiga, u Sharq olimlari asarlarini mustaqil mutolaa qiladi, fanning ko‘pgina sohalarini bir mutaxassis sifatida egallaydi. Taniqli ma'rifatparvar shoir Ibrohim Davron ham shu davrda «Turkiston viloyatining gazeti», Ismoil Gaspirali nashr qilgan «Tarjimon» gazetalari bilan Qo‘qon madrasalarida o‘qib yurgan kezlarida tanishgan. Ibrat 1886 - yilda Qo‘qon madrasasini tugatgach, ona qishlog‘i To‘raqo‘rg‘onga qaytadi. O‘z faoliyatini ma'rifat tarqatishga qaratadi. «Usuli qadim» qabilidagi maktablarni isloh etib, jadid maktablarini ochishga kirishadi, mehnatkash xalq bolalarini maktabga tortadi. Ammo ko‘p o‘tmay, mutaassib kimsalar bu maktablarni «kofirlar maktabi» deb yopib qo‘yishadi. Shundan so‘ng u 1887 - yilda, ya‘ni 25 yoshlarida onasi Huribibini hajga olib borish bahonasida Jidda shahriga yo‘l oladi. Ammo onasi o‘pka shamollashi sababli vafot etgach, u Sharq va G‘arb mamlakatlariga safar qilib, Istambul, Sofiya, Afina, Rim, shuningdek, Qobul, Makka, Kalkutta, Bombey kabi shaharlarda bo‘ladi. Safar davomida arab, fors, hindi, urdu, ingliz tillarini mukammal o‘rganadi. Sharq xalqlari tillari qatorida G‘arb xalqlari tillarini ham o‘rganish ishtiyoqida bo‘ladi. Eng muhimi, yozilajak ilmiy asarlari uchun boy material to‘playdi. Ishoqxon Ibrat matbaachi sifatida 1908-yildayoq Namanganda «Matbaai Is’hoqiya»ni tashkil etib, kitob nashriga kirishgan edi. Bu yerda u ko‘plab ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar bilan birga, zamonaviy mavzulardagi kitoblarni ham nashr etib, ilm-ma’rifat va ma’naviyat rivoji yo‘lida xizmat qilgan.

Ibratning shoir sifatida ham ko‘plab she’rlar yaratgani ma'lum. U maxsus devon tuzganligi haqida ma'lumotlar bor bo‘lsa-da, ular bizgacha yetib kelmagan. Ammo ko‘p she’rlari matbuot sahifalarida saqlanib qolgan bo‘lib ular hayotning turli jabhalaridan hikoya qiladi. Uning aksar she’rlari tarbiyaviy-didaktik xarakterda bo‘lib, jumladan, u bir she’rida:

Senga bu olam g‘animatduri,

Barcha ashyosi ne'matduri, - deb yozgan.

Ibratning milliy kutubxona, kitobxonlik ishlarining ilk tashkilotchisi va targ‘ibotchisi sifatida ham xizmatlari beqiyosdir. U asos solgan «Kutubxonai Is’hoqiya» fonda bu jihatdan ancha boy bo‘lib, unda kitob berish va olish ma'lum tartib-qoidaga moslashgan edi. Is’hoqxon To‘ra Ibrat xayrli ishlari tufayli xalq hurmatini qozonib, qozilik darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, ilm-fan, madaniyat, mакtab-maorif sohasidagi jonbozligi tufayli ayrim mutaassiblarning nafratiga uchragan. 1937-yilga kelib uning barcha faoliyatiga chek qo‘yildi, kitoblari yoqib, yo‘q qilib yuborildi. O‘zi esa qatag‘onga uchradi. Ibrat 1896-yili Hindiston, Birma, Xitoy, Qashqar orqali o‘z vatani Namanganga keladi. Safar natijasi o‘laroq, uning «Lug‘ati sitta al-sina» asari maydonga keladi. Ammo aytish lozimki, Chor imperiyasi davrida mavjud senzura bu asarni chop etilishiga salbiy ta’sir etmay qolmadi.

Bu holatni Ibrat: “1900-nchi yilsa 26 fevralda Hurmatlu Ostroumovhuzurlariga savolnoma: Ushbu barobarinda siz ulug‘ maratabadan o‘tunub so‘raymanki, 1898-inchi yilda sizdan iltimos qilib edim, o‘z tasniflarimdan olti til uzra “Sittati alsina” degan slovar kitobni bosmoq uchun. Marhamat qilib, ikki juz’ yuborimg ko‘rmoq uchun degan ekansiz. Darrov amrlariga muvofiq yuborib edim. Mazkurni(ng) hech xabari bo‘lmagan jihatidan boz iltimos turibman....” deb yozadi. Chor hukumati o’lka xalqlarini madaniy-siyosiy rivojlanishdan, milliy o‘zlik, uyg‘onishdan ayniqlsa, mahalliy aholini taraqqiy etgan millat ziyorilari bilan maunosabat qilishidan bo‘lgan hadiklari rus va boshqa yevropa tillarni o‘rganishga mone’ bo‘lib kelgan.

Asar 1901-yilda nashr etilib, u o‘zbekcha-ruscha va ko‘p tillik lug‘at yaratishda muhim tajriba rolini o‘taydi. Muallifning «Jome’ us-xutut» asari esa 1912 -yilda yaratilgan, u dunyodagi qirqdan ortiq tillar va yozuvlar haqida ma'lumot beradi. U tarixchi olim sifatida «Tarixi Farg‘ona» (1916) asarini yaratadi. Unda Qo‘qon xonligi va, umuman, Turkistondagi xonliklarning inqirozi, mustamlakachilik zulmi, eng muhimi, o‘z xalqining yorqin kelajagiga ishonch ruhi o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, 1928 -yilda uning yana bir asari - «Mezon ul-zamon» yuzaga keldi. Uning yana biqr qancha asarlari mavjud bo‘lib, ular «Tarixi chopxona», «Madaniyat» haqida masnaviy, «Gazeta xususida», «Qalam», «Lug‘at sitta alsina» («Olti tilli lug‘at», 1907), «Jome’ ul-hutut» («Xatlar majmui», 1912), «Tarixi Farg‘ona» (1916), «Mezon uz-zamon» (1926), «San’ati Ibrat», «Ilmi Ibrat» va boshqalar. O‘z davrining eng ilg‘or ta’lim-tarbiya usullarini keng yoyishga, millatni savod chiqarib mutaraqqiy etgan

xalqlar orasiga qo'shilishi uchun ulkan sa'y-harakat qilgan Ibratning ilmiy faoliyati o'z davri uchun nechog'lik muhim bo'lsa, bugun ham shunday muhimligini yo'qotmagan.

Shu o'rinda davlarimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkilotida so'zlagan nutqi juda o'rinli: "Turkiy sivilizatsiyani yuksaltirish g'oyasi texnologik taraqqiyot va ilg'or bilimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bevosita bog'liqdir. Ijodiy fikrlaydigan, iste'dodli va shijoatli yoshlarimiz istiqbolda turkiy dunyoning yangi Renessansini barpo etishiga ishonchim komil. Bu yo'lda ularga buyuk ajdodlarimiz yaratgan ilmiy kashfiyotlar va ma'naviy meros mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi. Ana shu ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan „Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari“ mavzusidagi xalqaro anjumanda vakillaringizni faol ishtirok etishga taklif etamiz. Shu bilan birga, yangilikka intilib yashaydigan, tashabbuskor o'g'il-qizlarni rag'batlantirish uchun O'zbekistonda Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman". Asl Ibrat vorislari unga munosib zamona ilm-fani va yutuqlaridan boxabar, zakovatli va tadbirkor, o'z o'rni jahon bilan hamnafas bo'loqlik uchun, o'qimoq-o'rganmoq-izlamoq uchun say qilmog'i lozim.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tarixi madaniyat / O'zR FA ShI Qo'lyozmalar fondi. Inv. № 11616. 139-bet.
2. Haqso'z. Xo'qand, Davron // Turkiston viloyatining gazeti. 1908. 56-son / Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar. 158-bet.
3. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Mezon uz-zamon / Is'hoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan
4. Ziyo.uz